

ЎЗБЕКISTON  
RESPUBLIKASI  
MILLIY TA'LIM VAZIRLIGI

# «Umid nihollari – 2009» –

5-bet

## Sirdaryoda tayyorgarliklar qizg'in

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

# Tong

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil  
30-iyun  
N:26  
(66671)



Ta'tilning zavqli  
onlari



## «TONG YULDUZI» — TANLOVG'OLIBI

Agar gazetamizni kuzatib borayotgan bo'lsangiz, o'tgan sonlarimizda «Olimp sari yo'l» viktorina tanlovi e'lon qilingan edi. Tahririyatimiz xodimlari ham tanlovda qatnashib, turkum maqolalar e'lon qildilar.

tanlovda faol ishtirok etgan «Tong yulduzi» gazetasi g'olib deb topildi.



Qo'shaloq bayram quvonchi



O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vaziri Rustam Qurbonov, Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchisi Yuy Xuntszyun gazeta Bosh muharriri To'liqin HAYITga sovg'a topshirmoqdalar.

Jurnalistlarning kasb bayrami arafasida g'oliblar aniqlandi. Mazkur



Medallarimiz yana bittaga ko'paydi.

Jamoamiz O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligining diplomi, O'zbekiston Milliy Olimpia qo'mitasining (MOQ) hamda Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan g'oliblar uchun ajratilgan so'nggi rusumdagi «NOTEBOOK» kompyuteri bilan taqdirlandilar.

## «MEN JURNALIST BO'LAMAN»

Jurnalist deganda, xalqimiz ko'z o'ngida el-u yurt quvonch va tashvishlariga sherik, doim yangiliklar izidan yuruvchi behalovat inson namoyon bo'ladi. Shu bois odamlar matbuotga, radio va televideniye katta umid bilan qaraydilar, ko'ngillarini ochadilar, ularni hayotda eng zarur, eng sodiq do'st-hamroh sifatida qadrlaydilar.

I.A.KARIMOV



Yoshligimdan teleko'rsatuvlarning boshlovchilarini, ularning har bir so'zlarini diqqat bilan kuzatar edim. Bu qiziqish meni keyinchalik «O'zbekiston» radiosiga olib keldi. Mana, radioga kelganimga ham ikki yildan ziyodroq vaqt o'tdi. Jurnalistlik kasbini tanlaganimdan hech afsuslanmayman. Kelajakda esa yetuk, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'sha oladigan jurnalist bo'lib yetishish eng oliy maqsadim.

Qamariddin SHAYXOV,  
soliq litseyi o'quvchisi

Chindan ham jurnalistlik kasbi juda mashaqqatli va mas'uliyatli kasbdir. 27-iyun kuni bu kasb egalarining bayrami nishonlandi. Bu kasbga ko'pchilik insonlar bolalikdan mehr qo'yishadi.

O'ramizda shu kasbga mehr qo'yish bilan birga, bu kasbni qiyinchiliklarini yengib, sir-asrorlarini o'rganayotgan tengdoshlarimiz juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ularga bugun sizningcha jurnalist kim, jurnalistika kasbiga qachondan qiziqib qolgansiz, degan savollar bilan murojaat qildik.

Jurnalist meni nazaringda har tomonlama izlanuvchan,

27-iyun — Matbuot va axborot vositalari xodimlari kuni



yangi g'oyalar egasi, tashabbuschi va eng asosiysi, har jihatdan insonlarga o'rnak bo'la oladigan, turli xabar va yangiliklardan xabardor etuvchi insondir.

Men jurnalistika sohasiga bolalik chog'imdanoq qiziqib kelardim. Vaqti kelib, albatta jurnalist bo'lishimga ishonardim.

Ko'plab kitoblar o'qirdim. Lekin oradan bir qancha vaqt o'tib, bularni qiyinchiliksiz uddalaydigan bo'ldim. Buning uchun kitobdan, kasb mahoratlarini o'rgatgan ustozlarimdan minnatdorman.

Nozima UMIDJONOVA,  
O'zDJTU 3-bosqich talabasi



astoydil erishish niyatidaman.

Men ham bu kasbga yoshligimdan qiziqib kelardim. Maktabni bitirajak vaqtida sinfdoshlarim bilan qaysi kasbni tanlab, qaysi o'qishga hujjatlarimizni topshirishimizni suhbatlashib o'tirganimizda, men jurnalist bo'laman degandim.

Gazetalarda bir qancha maqolalarim chop etildi. Kelajakda albatta qalami o'tkir, insonlar qalbini zabt eta oladigan, jo'shqin iste'dodli jurnalist bo'lib yetishib, jamiyatimizga nafim tegadigan inson bo'lmoqchiman.



Ziyoda ZIYAYEVA,  
O'zMU qoshidagi akademik-litseyi o'quvchisi

Men Mustaqillik bilan tengdoshman. Shu kasbim orqali juda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdaman. Dilimda yana bir orzuim borki, bu ham jurnalistika bilan bog'liq. Bu ham bo'lsa, o'zining go'zal, maftunkor she'rlari ila insonlar diliga kirib borgan, o'zbek she'riyatining malikasi bo'lmish Zulfiyaxonim izdoshlari bo'lishdir. Buning uchun o'qib, izlanib, mana shu nomga

Ruxshona XOLBEKOVA, Samarqand teleradiokanalining «Kino taqdim» ko'rsatuvi boshlovchisi va muallifi

Zilola MUTALOVA yozib oldi

Birovlarni aldagan kimsa, avvalo o'zini aldagan bo'ladi.

## TAKRORLANMAS BOLALIK

Bu yil yoz juda issiq keldi. Boboquyosh erta tongdanoq o'z nurlarini ayamay sochib, eng uyquchi bolalarni ham uyg'otib yuboryapti. Bunday damlarda katta-yu kichik soya-salqin, xushmanzara joylarga intiladi.



Siz-chi, o'quvchi do'stim, ta'lingiz qanday o'tyapti? Axir oromgohlarning ikkinchi mavsumi ham boshlanib qoldi. Qayerda dam olsam ekan, degan xayol sizni o'yantirayotgani aniq.

Biz oromgohlar va u yerda bo'lib o'tadigan tadbirlar haqida to'liq ma'lumot olish uchun Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi boshliq o'rinbosari Humoyun aka Akbarovga murojaat qildik. U kishi bizga oromgohlar haqida quyidagilarni gapirib berdi:

Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasining «2008-yilda o'quvchilarning yozgi ta'til mavsumini tashkil etish to'g'risida»gi 138-sonli buyrug'i qabul qilindi. Unga ko'ra metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi va bolajon murabbiylar jalb etildi.

23 ta shahar tashqarisidagi oromgohlarda esa 26 ming, kunduzgi maktablar qoshidagi oromgohlar soni 36 ta bo'lib, ularda 14 ming nafar o'quvchi dam oladi. Xalq ta'limi vazirligining «Mehribonlik» oromgohi esa 360 nafar o'quvchini o'z quchog'iga oladi.

Bundan tashqari, 299 ta maktabda sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etilgan. Ularda 31730 nafar farzandlarimiz ta'tilni maroqli o'tkazmoqdalar.

Shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida, bolalar va o'smirlar sport maktablari, madaniyat va istirohat bog'laridagi klublarda, mahalla va turar joylardagi maydonchalarda, maktabdagi mehnat amaliyotlarida bolalar obodonlashtirish ishlari bilan band.

Ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish uchun ko'plab qiziqarli tadbirlar rejasi mavjud. «Yoz-2008» sport o'yinlarini tashkil etishdan maqsad, o'quvchilarni ommaviy sportga jalb etib, ularning bo'sh vaqtini maroqli va mazmunli o'tkazish niyatida sportning 13 turi bo'yicha musobaqalar tashkil etganmiz.

Maqsadimiz, beg'ubor bolalikning gashtini surayotgan farzandlarimizni yozgi ta'tillarini ko'ngildagidek o'tkazishga erishish. Tabiiyki, ta'tilni mazmunli o'tkazgan bolalar, albatta yangi o'quv yilini tetik, bardam boshlaydilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA yozib oldi

«Yoz - 2008»

Aziz bolajonlar!

O'zbekiston deb atalgan jonajon Vatanga munosib farzand bo'lib voyaga yetish har bir o'g'il-qizning azaliy orzusi. Buning uchun, avvalo oila va bog'chadanoq ota-ona, tarbiyachilar panohida oqilona tarbiya olishlari, keyin maktab, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida puxta bilimni egallashlari kerak.

Haqiqiy vatanparvar nafaqat bilimli, balki yetuk ma'rifatli, ma'naviyati boy, barkamol inson bo'lishi kerak. Bu borada yaqinda «Ma'naviyat» nashryotida chop etilgan Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobi ustoz-muallimlar, tarbiyachilar, barcha-barcha uchun dasturulamal-maslahatchi bo'lib xizmat qiladi.

Yurtboshimiz o'z kitoblarida alohida ta'kidlaganlaridek, biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Haqiqatan ham ma'rifatli inson bo'lish uchun birinchi navbatda ko'proq o'qish, keng bilimga ega bo'lish kerak. Chunki kitobda aytilganidek, o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Otabobolarimiz ko'p yillar tengsiz boy tarixini, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Ulug'bek, Bobur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband singari buyuk bobokalonlarining hayoti va bebaho meroslarini bilmay yashab keldilar. Faqat istiqloliga tarixning ana shu kemtik joyini to'ldirdi. Xalqimizning tarixini to'raligicha, o'z holicha boyitib, Turonzamining naqadar ulug'vor ekanligini butun dunyoga ayon etdi.

Ammo mamlakatimiz istiqlolini, kelajagini ko'rolmaydigan g'arazli kuchlar hamon bizning har tomonlama boy hududimizga, hamjihat xalqimiz hayotiga ko'z tikib turishibdi. Kitobda qayd etilganidek, «... dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysuntirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlashtirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va madaniyatidan judo qilishga urunadi. Shu sababli, xalqimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lsa, bu o'sib

kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Agar bu borada sustkashlikka, e'tiborsizlikka yo'l qo'yilsa, yot kuchlar ma'naviyatga jiddiy tahdid solishi, bu esa oqibatda mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lida xatarli to'siq bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda yurtboshimiz kitobida: «Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutish lozim», deb masalaga alohida e'tiborni qaratadilar.

Haqiqatan ham bunday mafkuraviy hurujlar mustahkam milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, mustahkam e'tiqodimizdan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni qo'llashlari mumkin. O'ylaymizki, buni yurtimizda yashayotgan sog'lom

fikrii har bir odam yaxshi tushunadi.

Shu sababli, har bir mahallada, qishloqda, ta'lim muassasalarida, qolaversa, oilada bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari, hushyorlikni yo'qotmasliklari, yoshlar tarbiyasiga aslo beparvo bo'lmasliklari kerak.

Kitob shu ma'noda har birimiz uchun yaqin maslahatchi, muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Chunki bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z-o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil


davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi yo'lida sobitqadam bo'lib, fidoiylilik bilan kurasha olishi mumkin.

Jabbor RAZZOQOV,


O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

**TAHRIRIYATDAN:** Qadrlil o'quvchilar! Aziz murabbiylar va ota-onalar!

Ma'naviyat va ma'rifat haqidagi kitobda bildirilgan purma'no fikrlar haqidagi suhbatimiz davom etadi. Sizni ham ushbu suhbatga chorlab qolamiz.



## MA'NAVİYATLI BO'LIŞ BURCHI



## Afsus



(Hikoya)

Dilmurod esini tanibdiki, uylarida janjal. Ota-onasi sira kelisholmasdi. Yaxshiyamki, otasi kecha navbatchilikda edi. Shuning uchun ham kun tinch o'tdi. Bahonada uy vazifalarini qunt bilan tayyorladi. Qarangki, matematika fanidan topshirilgan masalani sinf bo'yicha faqatgina Dilmurod-u Dilobar to'g'ri bajarishibdi. O'qituvchi ularni maqtab-maqtab besh baho qo'ydi. Shunda qitmir Nodir gap qotdi:

– Dilmurod, birgalashib dars qilganmidilaring?

– Yo'q, – deya oldi xolos. To'g'risi, Dilobar Dilmurodga juda yoqadi. Uning har bir ishini Dilobar qo'llab-quvvatlaydi. Buni Dilobarning o'zi aytgan.

Dilmurodning uyida qiz bola bo'lmagani uchun uy yumushlari uning va ukasi Elmurodning zimmasida. Bir kuni ko'cha supurayotganida, Dilobar o'tib qoldi. Dilmurod qilayotgan ishidan judayam uyaldi. Dilobar buni sezgandek:

– Dilmurod, oldin ozgina suv sepib ol. Shunda changimaydi. Xohlasang, yordamlashib yuboraman. Juda yaxshi bolasanda. Akam Sherzod-chi, o'rtog'ing, hatto piyolasini ham yuvib qo'ymaydi. O'zing qil, seni vazifang, deb ko'chaga chiqib ketaveradi. Oyim ham: «U o'g'il bola, o'zing bajar», deyaveradilar, – degandi nolib o'shanda.

– Dilmurod, Dilmurod, – Nodirning sekingina shivirlab chaqirishi uning fikrlarini bo'lib yubordi. – Ertaga biz ham besh olaylik. Senikida dars tayyorlaymiz, bo'ptimi, – dedi miyig'ida kulib.

Dilmurod «xo'p» deyishga qo'rqdi. Bordi-yu, Nodir uning uyiga kelganida, otasi yana mast holda kelib janjal ko'tarsa-chi. Yaxshisi, o'zim uning uyiga borsam-chi, degan xayol o'tdi va:

– Mayli... balki senikiga o'zim borarman, – dedi noiloj.

– Nima deyapsan? Baho kerakmas. Hazillashdim. Uyingga borishga qo'rqaman-a. Yana adang gindiraklab chiqib qolsa, o'takamni yormasin, – xaxolab kuldi Nodir.

Uning gapini hamma, hatto o'qituvchi ham eshitdi. Biroq, hech kim hech narsa demadi. Dars tugagandan keyin sinfdoshlar shosha-pisha portfellariga kitob-daftarlarini solishdi-da, uy-uylariga yo'l olishdi. Dilmurod esa ataylab harakatini sekinlatdi, chunki u yolg'iz qolishni xohlagandi. Dilobar esa buni sezdi va uni sinf tashqarisida kutdi.

– Masalani yechishda qiynalmadingmi? – chalg'itmoqchi bo'ldi Dilobar.

– Yo'q.

– Rostdan bir o'zing bajardingmi? – qiziqib so'radi.

– Ha.

– Menga esa adam yordamlashdilar. Akamdan so'ragan edim, «Ikki olging kelayotgan bo'lsa, qoyillatib masalani yechib beraman», dedi. Judayam qo'pol-de, – deya zo'raki miyig'ida kulib qo'ydi Dilobar.

– «Javobi noto'g'ri chiqsa, qayta-qayta ishla, tushunib ishla, har bir formulani yoddan bil, shunda zo'r matematik bo'lasan», ustozimiz shunday deyidilar-ku, – ko'zlari chaqnaq javob berdi Dilmurod va ikkisi ham baravar kulib yuborishdi.

Dilmurodning boyagi tushkun kayfiyatidan asar ham qolmaganidan Dilobar xursand edi.

Dilmurod ham Dilobardek suhbatdoshi

**O'zini yomonliklardan asragan  
inson irodalidir.**

Donolar busotidan

bo'lganidan quvondi. Hozir onasi va ukasiga masalani faqat o'zi va Dilobar to'g'ri bajarganini, o'qituvchisi ularga besh baho qo'rganini aytadi. Ular rosa xursand bo'lishadi. Shunday xayollar bilan darvozadan uyiga kirdi. Kirdi-yu, ota-onasining janjali ustidan chiqdi.

– Assalomu alaykum, – uning salomiga na otasi, na onasi alik oldi. Xuddi Dilmurodning kirib kelganini sezishmagandek. Sekingina o'z xonasiga kirdi. Xonada esa Elmurod karavotida yuziga yostiqni qo'yib uxlab qolibdi. Dilmurod ham o'z joyiga yonboshladi. Xuddi ukasidek yostiq bilan yuzini berkitib oldi. Uxlashga harakat qildi. Ammo ota-onasining gaplari uning qulog'i ostida jaranglab turdi...

– Tur o'g'lim, ovqatingni yeb ol, – onasining ovozi bo'g'ilgan, ko'zlari qizargan edi. Dilmurod erinibgina oshxonaga bordi. Ukasi ham ularni kutib turgan ekan. Biroq, onasidan hadeganda darak bo'lmadi. Elmurod kutaverib charchadi. Onasini ovqatga chaqirmoqchi bo'lib qayta xonasiga kirdi.

– Aka, yuguring, adam qanilar, oyim, yuguring, – hovliqib baqirdi Elmurod.

Aka-uka shoshib uyga kirishganida, onasi yerda bexush yotardi. Tezda orqa ko'chadagi do'xtir opani chaqirib kelishdi. Opa

Davomi 4-betda

**ISHNING  
KO'ZINI BILAR**

Ko'pning kelar havasi,  
Kundek yorug' ertasi.  
Pok yurakning egasi,  
Kitob o'qigan odam.

Yaxshiliklarga yondosh,  
Ezguliklarga yo'ldosh.  
Yurar doim ko'ngli yosh,  
Kitob o'qigan odam.

Har vaqt savob ish qilar,  
Ishning ko'zini bilar.  
Yetim boshini silar,  
Kitob o'qigan odam.

**Dilshoda BOTIROVA,**  
Namangan viloyati, Pop  
tumanidagi  
7-maktabning 7-sinf  
o'quvchisi

**O'ZBEKISTON**

I

Bir yurt bor go'zal bo'ston,  
Har maskani guliston.  
Bog'lari jannatmakon,  
Bu – buyuk O'zbekiston!

Tuproq'i tilloga teng,  
Xalqi sofdil, bag'ri keng.  
Tolei cheksiz ummon,  
Bu – buyuk O'zbekiston!

II

Ka'bam o'zing, Vatanim,  
Sajdagohim, ko'z nurim.  
Har go'shang nurga makon,  
Jonajon O'zbekiston!

Bag'ringda topdim kamol,  
Ko'rma zarracha zavol,  
Qalbim sen-la nurafshon,  
Onajon – O'zbekiston!

**Bobir UBAYDULLAYEV,**  
Samarqand viloyati,  
Qo'shrabot tumanidagi  
16-maktab o'quvchisi

**ANTIQA  
SUHBAT**

Ko'maklashardi bog'da  
Akasiga Nilufar.  
Kun qizitib, horigach  
Singlisiga der Zafar:

– Endi quyonning rasmin  
Chizaylik, so'ng olay dam.  
– Aka, uyda chizasiz,  
Axir yo'q qog'oz-qalam.

**Saydullo QOPLONOV,**  
Jizzax viloyati, Baxmal  
tumanidagi  
11-maktab o'qituvchisi

**BIZ YOSHLAR**

Biz yoshlarmiz – yosh avlod  
Yurtga bo'lamiz qanot.  
Intilamiz ilmga,  
Bizga yo'ldosh «Kamolot».

Qalamni qo'lga olib,  
Yuksaklikka yo'l solib.  
Vatanimiz kuylaymiz,  
O'zbekiston deb yonib.

Gullaydi yurtimiz ham,  
Har kimdan emasmiz kam.  
Irodemiz mustahkam,  
Bizlar baxtli bo'lamiz.

**Mahbuba NORMATOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi  
tumanidagi  
50-maktabning 8-sinf o'quvchisi

**TONG ZAVQI**

Tong zavqi o'zgacha-da baribir,  
Kapalaklar tillo-bol teradi.  
Qushcha-yu, bir dam esgan shabboda  
Derazadan salom beradi.

Asir bo'lib atirgulning bo'yiga  
Shabboda shu choq dong qotgan edi.  
Quyosh nuri ko'zlarni qitiqlab,  
Zumda borliqda tong otgan edi.

**Shirinxon TOSHXO'JAYEVA,**  
Yunusobod tumanidagi 86-  
maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

«Yoshlar yili» – imkon yo'li

**«SHABNAMLI  
NON» SAHNADA**

Prezidentimiz 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qildilar. Bunday e'tibor o'g'irlarimizni behad quvontirdi. Ularning bilimi yana-da charxlanib, ko'proq izlanmoqdalar.

Maktab o'quvchisining asari teatr sahnalarida qo'yilyapti, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 19-ixtisoslashgan maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi Nafosatxon Tojiboyevaning «Shabnamli non» sahnaviy tomoshasi viloyat qo'g'irchoq teatrida qo'yildi. Asar yosh tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Nafosatxon yoshligidan she'r o'qishni, qo'shiq kuylashni va raqsga tushishni yaxshi ko'radi. Shu sababdanmi, o'quvchilar saroyidagi «Gulg'uncha» ashula va raqs dastasiga qatnasha boshladi. U viloyat televideniyesining bolalarga atalgan ko'rsatuvlarida boshlovchilik ham qildi.

O'tgan yili «Yangi avlod» IV Bolalar ijodiyoti festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, g'oliblar safidan o'rin oldi.

Tinib-tinchimas tengdoshingiz Nafosatxon Tojiboyevaning orzulari ko'p. Biz esa unga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

**MALHAM**

Qosh chimirar Gullola  
Muallimiga qarab.  
Der: – Ko'rdi qancha bola  
Koyidingiz ertalab.

Endi bola emasman,  
Bunaqasi ketmaydi.  
Sal achchiqroq gaplarga  
Sabr-u toqat yetmaydi.

Muallim der: – So'zlarim  
Tuyulmasin ko'p taxir.  
Ular achchiq bo'lsa ham  
Doridek malham axir.

**Boshi 3-betda**

sumkasidan bir shisha oldi-da, onasiga hidlatdi. Onasi o'ziga keldi shekilli:

– Voy, nima bo'ldi menga, siz qachon keldingiz? – dedi noqulay ahvolga tushib.

– Hushingizni yo'qotibsiz. Hammasi siqilishdan kelib chiqadi, – dedi do'xtir opa bir nechta dorilarni yoza turib.

Do'xtir opa uning onasini, oilasini yaxshi bildirdi. Bolalar opani uyigacha kuzatib qo'yishdi.

Keyingi paytlarda onasining ranglari oqarib, hushidan ketadigan bo'lib qoldi. Otasi ham bir kun uyga kelsa, uch kun kelmaydigan odat chiqardi. Zebi opa yana-da ko'proq siqiladigan bo'lib qoldi. Ammo farzandlariga bildirmaslikka harakat qildi. Bolalari ham otasini so'ramasdi.

To'g'ri-da, otasi uyda yo'q bo'lgan kun tinchlik bilan o'tadi. Ikki aka-uka dars tayyorlaydi, uy ishlarini kelishib bajarishadi. Onasi ham qarab turmaydi.

Doimo ularga shirinliklar, yaxshi ko'rgan taomlarini tayyorlab beradi, unchamuncha darslariga ko'maklashadi. Xullas, onasi bilan yaxshi. Onasi otasi bilan xohlagancha janjallashadi. Ammo biror marotaba Zebi opa bolalariga ovozini balandlatib gapirmagan.

Bolalari ham bunga imkon bermagan. Otasi ham yomon emas. Biroq, onasini

ko'p xafa qiladi. Jahl qilib uydin chiqib ketadi. Shu ketgancha haftalab uyga kelmaydi. Zebi opaning kun sayin sog'lig'i yomonlashib bordi.

Bu orada otasi ham ularni tashlab ketdi. Hammasi o'sha kundin boshlandi. Kasal onasi-yu yolg'iz ukasi bilan qolgan Dilmurod darsdan bo'shagan vaqtlarida bozorda aravakashlik qildi, birovlarning yukini ko'tarib uyiga eltib berdi. Ishlab topgan pulining hammasini onasining qo'lga berar ekan, bir gapni takrorlardi, «o'zingizga dori oling».

Bu gapni eshitgan ona ko'ziga yosh olar, «Erimdan ko'rmaganimni bolalarimdan ko'ray», deb ko'nglidan o'tkazar edi.

Biroq, Zebi opaning doridan ham ko'ra muhimroq xarajati borligini o'n to'rt yoshli bolakay qayoqdan ham bilsin. Bolalarning yeb-ichishi, ust-boshi Dilmurod topib kelayotgan pul evaziga olinar edi. Shu tariqa oylar bir-birini quvib o'tdi.

Bir kuni Dilobarning akasi Sherzod uylariga yaqin joyda yangi ishxona ochilganini, u yerga ko'plab mashinalar kelishi haqida gapirib qoldi:

– Aravakashlik joningga tegmadimi? Yaxshisi, o'sha yerga boramiz, mashinalarni yuvamiz. Katta sinfdagi bolalar ham mashina yuvib, «tirikchilik» qilishyapti-ku.

Bu taklif Dilmurodga ma'qul tushdi. O'sha kuniyoq aravalarni egasiga topshirdi-da, birgalashib yangi ochilgan ishxonaga yo'l olishdi. U yerda mashinalar juda ko'p edi. Ularga ro'para kelgan «xo'jayin»ga

maqsadlarini aytishdi.

– Men aytgan mashinalarni yuvasizlar, evaziga, har bir mashina uchun 1000 so'mdan haftaning oxirida pulingizni olasizlar, – dedi mashinalar oldida o'ralashib yurgan «xo'jayin». – Shu bugundan boshlab ishga kirishaveringlar, –



dedi-yu, o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi.  
– Bir kunda 5 ta mashina yuvsak, 5000

so'm, bir haftada 30.000 so'm. Bu juda zo'r-ku! «Arava» deb yurgandan ko'ra, mashinalarni yuvish mazza, – dedi Dilmurod hayajonini yashirolmay.

– Yaqinda o'zimiz ham mashina haydash yoshiga yetamiz. Ungacha uncha-muncha ko'zimiz o'rganib boradi, – qo'shildi Sherzod.

Bolalar bir-birlariga quvnoqlik bilan qarashar, osongina hal bo'lgan ishlaridan suyunishardi. Shu kayfiyatda ular ishga kirishishdi. Yana ishimiz yoqmay qolmasin, deb mashinalarni tozalab yuvishga harakat qilishar, «xo'jayin» buyurgan mayda-chuyda yumushlarni ham so'zsiz bajarishardi. Shu alpozda bir hafta ko'z ochib yumguncha o'tdi-ketdi.

Ikki o'rtoq pulni qachon berarkin, deb sabri tugab, toqati toq bo'ldi. Buni sezgandek «xo'jayin» ularni chaqirdi:

– Hozircha 5000 so'mdan olib turinglar, qolganini keyin olasizlar, – dedi sovuq ohangda.

Dilmurod pulni xursand bo'lib olar ekan, «xo'jayin»ning ziyrakligidan quvondi. Ammo bu hol Sherzodga yoqmadi. Shunday bo'lsa ham Dilmurodning qistovi bilan yana ishni o'tgan haftadan ko'ra yaxshiroq davom ettirdilar. Bir hafta o'tgandan so'ng «xo'jayin» ular qo'lga 3000 so'mdan berdi.

– Hozircha shu. Pul yo'q, xohlamasalar, jo'nalar, – dedi qo'pollik bilan.

Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Dilmurod uyiga kelganida, onasining issig'i baland edi. Darhol qo'shnisining telefoni orqali «03» ga qo'ng'iroq qildi. Hadeganda «Tez yordam» ham kelavermedi.

**Davomi bor.**

Feruza SOYIBJON qizi

# KELAJAK BUGUNDAN SO'ZLAYDI

Qadrli bolajonim, siz, avvalo buyuk mamlakatning farzandisiz. Yuksak orzular, ulug' niyatlar bilan yashamoqdasiz. Yurtimizda kundan-kun qad rostlayotgan bunyodkorlik ishlariga havas ila boqayapsiz. Prezidentimiz aytganlaridek, «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishlariga bog'liqdir».

Biz Sirdaryo viloyatida xizmat safarida bo'lgan chog'imizda, bu gaplarning nechog'li haqiqat ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Qudratli yurtimizda hamma narsa: tabiiy boyliklarimiz, unumdor yerimiz, mehnatsevar va iste'dodli xalqimiz bor.

Vaqt shiddat bilan o'tmoqda. Uning har bir soniyasida yangi bir avlodning kuchga to'lib safimizga qo'shilayotgani esa beixtiyor ko'nglimizni g'urur va iftixorga to'ldiryapti.

Xabaringiz bor, bundan roppa-rosa ikki yil avval «Umid nihollari» sport musobaqalari bahodirlar yurti – Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tgan edi. O'shanda estafeta bayrog'ini sirdaryolik yoshlar qabul qilib olgan edilar. Nihoyat, sirdaryolik tengdoshlarimizga ham navbat

«Umid nihollari – 2009» sport tantanalarining ochilish va yopilish marosimi bo'lib o'tadigan o'yingohga kirib borganimizda, u yerda qurilish ishlari qizg'in ekanligini ko'rdik.

Bizga Guliston shahar hokimligining qurilish, transport va obodonlashtirish bo'limi boshlig'i Nazrulla aka Xudoynazarov, qurilish bo'yicha bosh mutaxassis Eshmamat aka G'oyibnazarov va mohir quruvchi Ilhom Sapayev hamrohlik qildilar.



yetib keldi.




Guliston shahrida yana bir ko'rkam bino qad rostlayapti. Bu 100 o'ringa mo'ljallangan zamonaviy «Mehribonlik uyi»dir.



– Bugungi kunda markaziy bog'da ta'mirlash ishlari poyoniga yetib qoldi, – deydi bosh mutaxassis Eshmamat aka G'oyibnazarov va yakka tartibdagi tashkilot rahbari Ilhom aka Sapayev.



Ta'mirlash ishlariga 200 ga yaqin quruvchilar jalb etilgan.



Guliston shahar hokimligining qurilish, transport va obodonlashtirish bo'limi boshlig'i Nazrulla aka Xudoynazarov:

– Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan xayrli uch bosqichli tizimning birinchi bo'g'ini bo'lgan maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqalari viloyatimizda o'tayotganligidan xursandmiz.

Qurilish ishlarimizni 2007-yilning 4-aprelidan boshlagandik. Hozirda markaziy o'yingohda katta ta'mirlash ishlari boshlangan. «Quvonch» bolalar bog'chasi va TIP-1-4 hamda Farhod mahallasida esa qayta ta'mirlash ishlari ancha ko'zga ko'rinish qoldi.

Viloyat, shahar hokimligining tashabbusi bilan mahalla qismida «Umid nihollari bog'i» barpo etilyapti. Shahrimiz kundan-kunga yangi binolar, ta'mirlanayotgan dargohlar bilan go'zallashib boryapti.

O'yingoh 8 gektar yerni tashkil etadi.

Markaziy o'yingoh 20 ming tomoshabinni o'z bag'riga oladi.



Viloyatda sport inshootlari qurilishiga katta ahamiyat berilmoqda. Guliston shahrida 1 ta TIP IV bolalar sport majmuasi, 1 ta Guliston shahar Markaziy o'yingohi, 1 ta «Boks saroyi» rekonstruksiyasi, Boyovut tumani 27-, Mirzaobod tumani 26-, Sayxunobod tumani 13-, Sardoba tumani 15-, Sirdaryo tumani 43-, Xovos tumanidagi 16-maktablarga qo'shimcha 12x24, 9x18 o'lchamdagi sport zallarining qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Angladingizmi yurtimiz kelajagi buyukligini?! Bu shunchaki maqtoy yoki go'zal so'z emas. Bu so'zlar zamirida chindan ham O'zbekistonimizning ertasini, yorug' va barkamol yo'llarini belgilab beruvchi barcha asoslar bor. Zero, yurtimizning har go'shasida, har soniyasida kelajak bugungi ezguliklari bilan so'zlab turibdi.

Sahifani Feruza SOYIBJON qizi, Ma'mura YIGITALI qizi tayyorlashdi

## «SIYOVUSH»DAN SUV ICHIB...

Sport musobaqalarida mezbonlik qilayotgan gulistonliklar ishtirokchilarga ajoyib sovg'a hozirlashyapti. Shaharning Farhod hududidagi bo'sh yer endilikda ko'rkam boqqa aylantirilmogda. Bu bog'ni «Umid nihollari bog'i» deb nomladik. Eng qizig'i, bog'da har bir viloyat o'quvchilari uchun



bittadan kichik hovuz, ya'ni 14 ta kichik suv havzasi favvorasi bilan bunyod etilyapti. Har bir hovuzcha turli shakllardan iborat.

Albatta buning ramziy ma'nosi bor. Go'yo hovuzlar «Siyovush» arig'idan suv ichib, do'stlik rishtalarini yana-da mustahkamlayotgandek...

Vaholanki, do'stlik odob g'ishtlari-yu, sadoqat loyi bilan quriladi.



«Umid nihollari bog'i»da qurilish avjida.

Aziz bolajonlar! Sevimli yozuvchingiz Nosir Fozilovni yaxshi bilasiz. U kishining bolalarga atab yozgan o'nlab asarlarini o'qib, mazza qilgansiz. Darsliklaringizda esa u kishi haqida to'liq ma'lumot berilgan. «1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni»da u kishini ziyoratlarida bo'lib, ular bilan gurgung chog'ida o'zimiz uchun ham yangilik bo'lgan ko'plab voqealar haqida suhbatlashdik. Aksariyati ibratli bo'lgani uchun sizlarga ham ilindik.

– **Nosir aka, bugun tug'ilgan kuningiz. Bolalarning sevimli yozuvchisini «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni»da tug'ilishi tasodifiy?**

– Men 1929-yilda tug'ilganman. Bobo-buvilaringizdan so'rab ko'rsangiz ham bo'ladi. U paytlarda hujjatlarni rasmiylashtirish ishlari bugungidek puxta va aniq yo'lga qo'yilmagan edi.

Esimni taniy boshlagach, onamdan tug'ilgan kunimni aniq bilmocchi bo'ldim. Har gal bir xil javob olardim. «Sen bolam, qovun palagi do'ppidek bo'lgan paytda tug'ilgansan», derdilar.

Razm solib qaragam, har doim qovun palagi mayning oxirlari-yu iyunning boshlarida do'ppidek bo'lar ekan. Shundan kelib chiqib, 1-iyunni tug'ilgan kunim, deb hisoblaydigan bo'ldim.

– **Ayni o'ynab-kuladigan bolalik chog'laringiz urush paytiga to'g'ri kelgan ekan-da.**

– Ha, Ikkinchi jahon urushi boshlangan kezlar o'n ikki, o'n uch yashar bola edim. Biz kabi bolalar yelkasiga urushning zalvorli yuki tezda o'z og'irligini tashladi.

Urushga ketgan otalar, akalarning ketmoni, dalalarni sug'orish, g'o'zaga qarash, xirmon haydash kabi barcha yumushlar bizga qoldi.

– **Bir gal suhbat chog'ida yoshligimda o'zimdanda katta bir ketmonim bo'lar edi, deb gapirgan edingiz.**

– Rostdanam bor edi. O'zi mushtdek bolalar o'zidan katta ketmon bilan ishlashga harakat qilardi. Ochig'ini aytganda, yozuvchi bobom yoshligida juda mehnatkash bo'lgan ekan, degan xayolga bormang. Buni boshqa quvlik tomonlariyam bor. Tushlik mahali dalada ishlayotgan bolalarga yorma, atala, go'ja kabi ovqat berishardi. Hozirgi

kundagi turli xil idishlar qayoqda deysiz. Ketmon yuziga ovqatni solib berishardi. Kimning ketmoni katta bo'lsa, ovqat ko'proq sig'adi. Ovqatni yeb bo'lgach, ariqdagi suvga bir-bir botirib olinsa, ketmon yana top-toza. O'ziyam ishlatavrilganidan ketmonlar ham yaltillab ketgandi.

– **Siz barakali ijod qilib kelayotgan adiblardan birisiz. Kitoblaringiz sanog'ini bilasizmi?**

– Kim biladi. Yuzdan ortiq kitobim nashr etilgan. Qozoq adabiyotidan qirqdan ortiq, q o r a q a l p o q adabiyotidan o'n yettita har xil hajmdagi kitoblarni o'zbekchaga

**Nosir Fozilov,**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, yozuvchi:

## «KITOB O'QIB KATTA BO'LGANMIZ»

o'girganman.

– **Bolalar uchun ijod qiladigan yozuvchi uchun eng asosiysi nimada deb bilasiz?**

– Bolalar aralashgan hamma asarlar ham bolalarniki bo'lolmaydi. Ularning fe'l-atvori tahlil etilmas ekan, uni bolalar olamiga kirishiga umid qilmasa ham bo'laveradi.

– **Bolalikning rang-barang dunyosi aks ettirilgan bir qator kitoblaringiz qatorida kattalar hayoti, ustozlar haqidagi kitoblaringiz ham muxlislar tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olingan. Ko'pchilik sizni adabiyotimizning ko'plab darg'alari duosini olgan yozuvchi deb e'tirof etishadi.**

– Bu borada men o'zimni eng omadli va baxtli insonlardan biri deb bilaman. Chunki Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, G'afur G'ulom, Shayxzoda domlalariga hamnafas bo'lish, ular bilan davralarda yurish nasib etdi.

– **Bu buyuk ustozlardan nimalarni o'rgangansiz?**

– Ozmi-ko'pmi, ijodim jarayonida nimaga erishgan bo'lsam, shu aziz insonlarni xolis duolari

tufayli, deb bilaman. Avvalambor, men ulardan adabiyotga sadoqat sabog'ini oldim. Davralarda o'zini tutish odobini o'rgandim. Bolalar uchun asarlar yoza boshlaganimda esa bu sohaning naqadar mas'uliyatli ekanligini his etdim.

– **Bugungi kunda ko'pni ko'rgan, nuroniy yozuvchilarimizdan birisiz. O'zingizni ham shogirdlaringiz bormi?**

– Meni fikrimcha, ustoz shogird tanlamaydi. Mendan maslahat so'rganlarga hamisha qo'ldan kelgancha yordam berishga harakat qilganman. Yurtimizning turli go'shalaridan ijodkor ukalarim qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'rashib, ustoz deb e'zozlashadi. Toshkentda ijod qiladiganlari esa doimo xabar olib turishadi. Bir paytlar ustozlarga qilgan xolis xizmatim bugungi kunda bu ukalarimdan qaytayapti. Men bundan behad xursandman.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni, «El-yurt hurmati» ordeni va yana

ko'plab mukofotlar sohibisiz. Bir paytlar dalada og'ir mehnat qilib yurgan yoshlik yillaringizda shunday martabalariga erishish xayolingizga kelganmi?

– Yoshlik yillarida ko'p narsalarni orzu qilganman. Kechasi bilan kitob mutolaa qilib, onalarimiz o'qib bergan qissalarni eshitib katta bo'lganmiz. Odam ezgu-niyat bilan mehnat qilsa, bir kun albatta samarasini ko'rar ekan. Hammaga ham yaxshi kunlar nasib etsin.

– **Nosir aka, «Tong yulduzi» bolalar va o'smirlarning gazetasi. Aytish joiz bo'lsa, mushtariylari sizning o'quvchilaringiz. Suhbatimiz so'nggida ularni xursand qiladigan nimangiz bor?**

– Bu gazeta hammamiz uchun qadri. Ko'pchiligimiz uni o'qib katta bo'lganmiz. Men uchun yana bir e'zozli tomoni shundaki, «Mehmon» degan ilk hikoyam 1952-yili shu gazetada chop etilgan. Bolajonlar uchun esa bitta yaxshi yangiligim bor. «Cho'lpon» nashriyotida «Yovshan isi» nomli kitobim nashrdan chiqish arafasida. Menimcha, bu kitob bolajonlar uchun yaxshi sovg'a bo'ladi.

– **Ustoz, samimiy suhbatigiz uchun katta rahmat. Jajji nabiralaringiz sizdan bir-biridan qiziq kitoblar kutib qolishadi.**

Yusuf ABDULLAYEV

### Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

– Ogohlantiraman! – tahdid bilan dedi u Garriga engashib va uning yuzi g'azabdan qizarib ketdi. – Ogohlantirib qo'yay, biror-bir qiliq ko'rsatgudek bo'lsang, «Rojdestvo» bayramiga qadar o'z qaznog'ingda qamalib o'tirasan!

– O'zimni yaxshi tutaman! – va'da berdi Garri. – Chin so'zim...


Lekin Vernon xonim unga ishonmadi. Unga hech qachon hech kim ishonmasdi.

Muammo shunda ediki, Garri bilan ko'pincha g'alati hodisalar sodir bo'lardi va uning hech bir aybsizligini Dursllarga tushuntirish befoyda edi.

Kunlarning birida Garrining sartaroshxonaga borishdan oldin qanday bo'lsa, o'shanday qaytishi Petunya xolaning joniga tekkanini aytib, zorlandi. U oshxona qaychisini olib, ayolning iborasi bilan aytganda, «bu xunuk chandig'ni yashirish uchun» peshonasida kichikroq kokil qoldirdi-da, deyarli

kal qilib, bolaning sochlarini qirqib tashladi. Dadli butun oqshom Garrini turli haqoratlar bilan kamsitib jig'iga tekkan va u maktabida shundoq ham qopday osilib turgan kiyimi va «skoch» bilan yopishtirilgan ko'zoynagi tufayli uni tahqirlashayotganlarga qanday kulgi bo'lishini tasavvur etib, tuni bo'yi uxlamagandi.

Biroq, ertasiga ertalab uning sochlari o'sib ulgurgani va oldin qanday bo'lsa, xuddi o'shanday turgani ma'lum



bo'ldi. Garchi buning sababini o'zi ham bilmasligini aytib, Dursllarni ishontirishga shuncha urinsa ham, baribir uni rosa bir hafta qaznoqdan chiqarishmasdi.

Boshqa safar Petunya xola unga Dadlining nihoyatda xunuk, sarg'ish gulli eski jemperi kiyishiga majburlab ko'rdi. U Garriga jemperi kiydirishga nechog'li urinmasin, jemper borgan sari torayib borar va axiyri shunchalar kirishib ketdiki, Garriga emas, qo'g'irchoqqa ham kiydirish mushkul edi. Uning baxtiga Petunya xola jemper yuvilganidan keyin kirishib ketibdi, degan xulosaga keldi-yu, Garri jazodan qutulib qoldi.

Garrini maktab oshxonasi tomida yurganini payqashgani tufayli yana bir ko'ngilsiz voqea bo'lgandi. O'sha kuni Dadli va uning sheriklari odatdagicha ularning zulmidan yashirinishga

uringan Garrining ortidan quvishardi hamda qaysidir lahzada u o'zini ham, boshqa bolalarni ham hayron-u lol qoldirib, truba ustida paydo bo'lib qoldi. Garrining sinf rahbari Dursllarga bola maktab oshxonasi tomida yurgani to'g'risida nordongina xat yubordi.

Garri Vernon amakiga faqatgina oshxona orqasidagi axlat qutilari ustidan sakrab o'tmoqchi bo'lganini, biroq, tomda qanday paydo bo'lib qolganini o'zi ham anglolmaganini tushuntirishga urinib ko'rdi, ammo u bolani indamay qaznoqqa qamadi-da, ketdi. U axlat qutilari ustidan sakraganida, uni shamol to'liqini o'z og'ushiga olgani bois, hammasi shunday ro'y bergan, deb o'ziga tushuntirdi Garri.

Ammo bugun? ammasi shunchaki a'lo bG'lishi kerak edi. Garri?atto Dadli va Pirs bilan birgaligi?a?ida?am afsuslanmasdi.

Gulchehra SA'DULLAYEVA  
tarjimasi

Davomi bor.



**EKKANGA RAHMAT!**

Shox-shabbaga bir qarang, O'rik pishdi oltin rang.

Zavqqa to'lib kuzatdim, Sakrab qo'lim uzatdim.

Yesam, oh-oh, qand ekan, Bilolmadim kim ekan.

**O'ZBEKCHA KULAR EKAN**

Chet ellik mehmon, oz-oz O'zbekcha bilar ekan. Lekin bizlar bilan teng, O'zbekcha kular ekan.

Vali AHMADJON,  
Farg'ona viloyati,  
Bag'dod tumani

To'shama	O'g'ilning ayoli		Namuna Tuproq		Giyoh	Gazlama		O'simlik Hasharot
Gap bo'lagi						Teskari Daryo		
					Gazmol Yulduz turkumi			
Hayron				Ayniy asari Kimyo moddasi				
			Sirk maydoni ...anjom					Inson
Har-tumli		Tutqun Katta					Nozik mato	Kuz mevasi
Yevropa millati	Kasb piri					Chegara		
Elektrod						Ko'rsatish olmoshi Jasur		
	Uzum tupi Xulq				Kimyo moddasi Shon-...			
				Ijodkor Ot tusi				Hafta kuni
			Jimlik Naqliy asar					Qator Musiqasi turi
		...tin Qurshov					Nota Rossiya viloyati	
	Qalb Oy						Palov	
Ko'hna Qarshi						Uka emas Baho		
					Rang	Chin...		
Yog'in				Chashma				
Sayqal	Payg'ambar		Shudgor tekislagich					

Foziljon ORIPOV tuzdi

## FUTBOLNING VATANI QAYERDA?

Men futbolni yaxshi ko'raman. Shu sabab, bu millionlar o'yinining tarixi bilan qiziqdim. Aslida futbolning vatani Angliya ekan. Bu o'yin avvaliga ipni o'rab yasalgan to'plarda o'ynalgan, darvoza to'ri va ustunlari bo'lmagan ekan. Vaqt o'tgani sari esa futbol jamoalari va federatsiyalar tashkil qilingan. O'zbekistonda birinchi futbol jamoasi 1912-yilda Qo'qonda tuzilgan. Toshkentning «Paxtakor» klubi eng ko'p mamlakat chempionligini qo'lga kiritgan.

Javohir ABDUG'ANIYEV,  
Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi  
35-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

## TANDIRNING VATANI

Tandir uchun echki yoki tuya juni loyga qo'shib qoriladi. Loy yaxshi pishirilgach, namakobni sepib, o'rab qo'yiladi. Bir necha soatdan keyin yana qayta sepib pishiriladi. So'ng, undan 20-30 sm, qalinligi 8-10 sm, uzunligi 80-90 sm atrofida bo'lak-bo'lak parchalar tayyorlanadi va ulardan bir nechtasini bir-biriga tikka qilib yopishtirib, tandir hosil qilinadi.

Buxoro, Samarqand tandirlari yerga yoki maxsus supaga og'zi tik qilib qurilsa, Farg'ona vodiysida va Toshkentda yotiq qilib o'rnatiladi. Tandir yasashda Namangan viloyati peshqadam, uni yasashda asosan qiziltuproq ishlatiladi.

Xorijiy mamlakatlarga borsangiz, tandirni nima ekanligini biladilar, biroq, uni tarjima qilib bera olmaydilar.

Tandirning vatani O'zbekistondir. Ilk bor tandir Samarqandda yaratilgan.

**Ruslan IBODOV,**  
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti,  
Xalqaro aloqalar va iqtisodiyot fakultetining  
2-bosqich talabasi



kelyapti.

Samarqand shahrida o'tkazilgan «Bolalar

Bolalar, «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalining g'olibi kim ekan, deya qiziqayapsizmi?

Unda, tanishing: navbatdagi g'olibimiz farg'onalik Malika Salaydinova. U endigina 4-sinfni tamomladi. Malika shahardagi 1-o'quvchilar ijodiyot markaziga qatnaydi. Uni «Tabassum» raqs guruhida «raqqosa qizimiz» deya erkalatishadi. Malikaxon 2004-yildan buyon viloyatdagi katta bayramlarda, ommaviy tadbirlarda o'zining chiroyli raqslari bilan muntazam qatnashib

## BUGUNNING



## «YANGI AVLOD»LARI

estrada dastasi) ko'rik-tanlovi jaji raqqosamizga omad olib keldi. U ko'rik-tanlovning «Faxriy yorlig'i»ni qo'lga kiritdi. Raqsni sevgan bu qizaloqqa «Marg'ilon shahrining 2000» yilligi ham shirin xotiralarni tuhfa etdi. Axir u katta sahnada yakkaxon raqqosa bo'lib xiron ayladi. Hatto Prezident bobomiz ham uning raqslarini tomosha qildilar. Poytaxtdagi «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali bo'lajak raqqosani diplom bilan taqdirlab, ushbu tanlovning g'olibi deb e'lon qildi.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

# ULUG'BEKNING SHOGIRDLARI

Men tarixga ko'proq qiziqaman. Ulug' ajdodimiz Ulug'bek Mirzoning ko'plab shogirdlari bo'lgan ekan. Ular to'g'risida ma'lumot bersangizlar. Ha, aytganday, sevimli gazetamizga o'rtog'im Jasur ham obuna bo'ldi. U ham tarixga qiziqadi.

Hurmat bilan Bahodir KAMOLOV,  
Farg'ona

\*\*\*

Bahodirbek! Seni va o'rtog'ing Jasurning gazetamizga bo'lgan e'tiborlaringdan mamnunmiz. Iltimoslaringizga binoan, Ulug'bek Mirzoning shogirdlarining har biri haqida qisqa va lo'nda ma'lumot berishga harakat qildik. Keyinroq ular to'g'risida keng va batafsil ma'lumotlar berib boramiz.

## QOZIZODA RUMIY

Ulug'bekning eng taniqli va obro'li shogirdi. U Rumning Burs shahrida 1360-yillarda qozi oilasida tug'ilgan. U Ulug'bek Mirzo hukmronligi yillarida matematikaning rivojlanganligini eshitib, o'sha paytda dunyoning eng go'zal shahri bo'lmish Samarqandga keladi. Ulug'bek Mirzo unga ustoz sifatida juda hurmat bilan qaragan. Rumiyl Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida faoliyat ko'rsatib, bir qancha asarlar yozgan. Uning «Astronomiya haqida risola», «Sinus-kvadrat haqida risola», «Arifmetika haqida risola» va boshqa asarlari bizgacha yetib kelgan.

## G'YOSIDDIN JAMSHID KOSHIY

U Ulug'bek saroyining ikkinchi buyuk

allomasi. 1387-yillarda Erondan Samarqandga kelgan. Handasa va aljabrning ba'zi teoremlariga tayangan holda, sinus 1 darajasining qiymatini aniq hisoblash usulini ixtiro qilgan. «Hoqon ziji», «Arifmetikaga kalit», «Koshiy ziji», «Astronomiya haqida risola», «Astronomiya fanining qisqacha bayoni» risolalari uni jahonga tanitdi.

## ALI QUSHCHI

1402-yilda Samarqandda tug'ilgan. Ulug'bekning eng sodiq shogirdi. U «Astronomiya ilmi haqida risola», «Geometrik masalalar va astronomiya», «Ulug'bek zijinga sharh», «Samo pog'onalari» va «Xitoyнома» tarixiy asarlarining muallifidir.

Ali Qushchi 1474-yilda Istanbulda vafot etgan.

## NIZOMIDDIN BIRJANDIY

Undan juda ko'p asarlar qolgan. «Taqvim haqida yigirma bob», «Kuzatish asboblari haqida risola», «Kenglama va iqlimni o'lchash usullari haqidagi risola» shular jumlasidandir.

Astronom va qonunshunos olim Nizomiddin Birjandiy umrining oxirlarida Isfaxonda yashagan.

## MIRIM CHALABIY

Samarqandda tug'ilib o'sgan. 1525-yilda Turkiyada vafot etgan. Uning «Qiblaning azimutini aniqlash to'g'risida», «Sinus kvadrat haqida»gi va boshqa risolalari mashhurdir.

## AJOYIB ERTALIK

Timur Tursunov poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan «Tabassum» nomli 262-bog'chada ta'lim-tarbiya olayapti. Bog'chaga o'z sohasining yetuk mutaxassisi Olga Petrovna rahbarlik qilib kelmoqda. Kuni kecha mazkur bog'chada ajoyib ertalik o'zgacha tantana bilan nishonlandi. Bolalar o'zlari yod olgan «Vatan», «Ona» va «Tinchlik»ni madh etuvchi she'rlarini ifodali aytib berishdi. Tarbiyachilar tomonidan sahnalashtirilgan ajoyib sahna ko'rinishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Hammadan ham Timur Tursunovning chizgan suratlarini barchani o'ziga tortdi. Timur yoshligidanoq rasm chizishga ishtiyoqmand. U tabiat go'zalligi-yu hayvonot olamini mo'yaqalam yordamida o'z fikricha kashf etadi. Timur o'zbekona urf-odatlarini yaxshi ko'radi. Ularni ziyraklik bilan kuzatadi. Yosh bo'lsa-da, ranglarni ichki bir did bilan tanlay oladi. Albatta bunda tarbiyachilarning ham katta hissasi bor. Dasturni quvnoq v a esda qolarli o'tishida kichkintoylarga tarbiyachi opalari Yelena Vladislavna yaqindan yordam berdi.



Botir RAMAZONOV,  
jamoatchi muxbir

## QATRALAR

Tekin baho olmoq kasbi – sudxo'rlik,  
O'quvchi sha'niga qora dog' – xo'rlik.

\*\*\*

Qalam ila quduq qazimoqni o'rgan,  
Shunda hayot seni ham olajak tan.

\*\*\*

A'lochi o'quvchi bo'lmoq-ku oson,  
Chin inson bo'lmoq lek qiyindir chunon.

\*\*\*

Qarchig'ay bo'lgilu, bo'lmagil chumchuq,  
Tilingga erk berma ko'p, ey chug'urchuq.

\*\*\*

Mo'may baho harom-xarish luqmadir,  
Yovg'on oshdek tan-joningga yuqmaydir.

\*\*\*

Gap uqmas o'quvchi somonga o'xshar,  
Iniga sig'magan sichqondek qochar.

HASAN ota, Toshkent viloyati,  
Bekobod tumani



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

### BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
**Zuhra MUXSIMOVA**  
Navbatchi:  
**Sayyora JO'RAYEVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEY,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzillimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks: (99871) 244-38-10

**Rassom:**  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 49546  
Buyurtma N: J 5519